

# YURIDIK TA'LIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYA BILAN INTEGRATSIYA QILISH

**Yuldashova Qunduz Bozorovna**  
**Buxoro viloyati yuridik texnikumi**  
**“Xususiy- huquqiy fanlar” kafedra mudiri**  
**Телефон:+998(91)4160639**  
**kunduzbazarovna85@gmail.com**

**Annotatsiya.** Zamonaviy texnologiyalar o'qitish usullarini ham takomillashtirishga imkoniyat yaratib, ta'lim jarayoniga yangi atamalarni olib kirdi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar, internet nafaqat yoshlarimiz, balki keng omma oldida ham ommalashmoqda. “Birga-bir” masofaviy o'qitish uslubini ta'lim muassalarida qo'lashda, albata, ijtimoiy tarmoqlar hamda internet xizmatidan keng foydalanish lozim. Bu usulda o'qituvchi talabalar uchun seminar va amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan topshiriqlarni elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali yuboradi. Ta'lim jarayonida qidiruv tizimlaridan foydalanish (lex.uz, Norma, Yurida, Google disk) imkoniyati va afzalliklari.

**Kalit so'zlar:** Huquq, LexUZ, huquqiy ong, YURIDA, jamiyat, Google disk, Mozilla Firefox, Birga-bir.

O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot-izlash tizimi (bundan buyon matnda “LexUZ” QHMMB AIT yoki LexUZ tizimi deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 avgustdagi 304-sonli “Qonun hujjatlarini turkumlashni takomillashtirish va huquqiy axborotlarni tarqatishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan yaratilgan huquqiy axborot izlash tizimi bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlarni oson hamda qulay shaklda izlash va ular bilan tanishish imkonini beradi<sup>1</sup>.

LexUZ tizimining maqsadi – yuridik va jismoniy shaxslarning me'yoriy-huquqiy hujjatlardan keng foydalanishini ta'minlash orqali aholining huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatni huquqiy axborotlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirishdir.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida” gi farmoni.

LexUZning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: Mobillik. LexUZ tizimidan dunyoning istalgan mamlakatidan turib foydalanish mumkin. Buning uchun faqatgina Internet tarmog'iga ulangan kompyuter (yoki boshqa qurilma) kerak bo'ladi. Biror bir qo'shimcha dasturiy ta'minotni o'rnatish shart emas. Qulaylik. Boshqa mavjud dasturlarni doimo yangilab borish lozim, bu esa foydalanuvchilardan qo'shimcha mablag' yoki vaqt talab qiladi. LexUZ tizimi foydalanuvchisi bu haqda bosh qotirishiga hojat yo'q. Ishonchlilik. LexUZ tizimi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga tegishli bo'lib, barcha hujjatlar faqat rasmiy manbalardan foydalangan holda kiritilishi tizimdagi ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlaydi. Bepullik. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 31 dekabrda 340-sonli "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasidan keng foydalanishni ta'minlash choratadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq 2010 yil 1 yanvardan boshlab barcha foydalanuvchilar Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasidan bepul foydalanishi mumkin. "LexUZ" dasturiy ta'minotining yangilanishi natijasida tizimga ommabop veb-brauzerlar "Opera", "Safari", "Mozilla Firefox", Google Chrome va boshqa shu kabi dasturlar orqali kirish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, yanada ko'proq foydalanuvchilarni qamrab olish maqsadida "LexUZ"ning mobil aloqa vositalari uchun maxsus varianti yaratilgan.

Shu o'rinda Norma kompaniyasi O'zbekiston elektron mahsulotlar bozorida 1999 yildan beri faoliyat yuritadi, o'zbek va rus tillarida huquqiy va iqtisodiy mavzularda elektron axborot qidiruv tizimlarini, kartografik asosda elektron ma'lumotnomalar va boshqa elektron mahsulotlarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan. Asosiy vazifasi – biz mijozlarimizga aniq, dolzarb va kerakli axborotdan foydalana olish imkoniyatini beramiz, bu esa ularga to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Norma kompaniyasi faoliyat olib borgan yillar mobaynida ishlab chiqargan axborot qidiruv tizimlaridagi normativ hujjatlar, tushuntirish, uslubiy va ma'lumot materiallari soni 140 000 dan oshiq, yangi hamda tadbirkorlar va turli tarmoq korxonalarini rahbarlariga zarur mahsulotlar paydo bo'ldi. Elektron axborot qidiruv

tizimi – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi; Elektron ekspert ma’lumot tizimlari: kmaliy buxgalteriya, kichik korxonada elektron buxgalteri, amaliy soliq solish, tekshirish “A” dan “Ya” gacha, kadrlar bo‘yicha maslahatchi, soliqlar: savollar va javoblar, eksport-import operatsiyalari, korxonada yuristi, qurilish, kichik korxonada: hisob, soliqlar, huquq, bojxonada kalkulyatori.

“Yurida” imkoniyat va afzalliklari. Kerakli normativ-huquqiy hujjatlar tez va oson topiladi. Huquqiy savodxonlikni yanada oshiradi. Qonun matni matniligicha saqlanadi – qonun matnida havola (giperssilka) qo‘yilgan qonun matnini tushuntiruvchi, unga izoh beruvchi, sharh beruvchi matnlar umuman kiritilmaydi. Dastur internetga ulanmagan holda mustaqil ishlaganligi sababli axborot xavfsizligi ta’minlashning samarasi oshadi.

Dastur bazasi oyda 4 martagacha yangilanadi, Qog‘oz isrofining oldini oladi, boshqa dasturlardan farqli ravishda “YURIDA” huquqiy axborot tizimi kompyuter dasturi bo‘yicha shartnoma amal qilish muddati tugaganidan keyin ham, dastur to‘liq ish faoliyatida bo‘ladi.

Professor-o‘qituvchilar dars jarayonlarini tashkil etishda xamda dars jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni Google blogger yordamida o‘zinning shaxsiy saytingizni (blogingizni) yaratishi va saqlashi mumkin. Google disk – bu shaxsiy hujjatlaringizni saqlash imkoniyatini beruvchi virtual disk hisoblanadi. Unga kirish bu rasmda ko‘rsatilgan Diskni bosish orqali amalga oshiriladi: Virtual diskda joylashgan hujjatlarga Siz o‘zingiz ko‘rish (tahrirlash, kommentariyalar berish) huquqlaridan kelib chiqqan holda boshqa foydalanuvchilar bilan o‘roqlashishingiz mumkin. Shuningdek Sizga boshqa foydalanuvchi tomonidan berilgan hujjatlarni ko‘rishingiz (tahrirlashingiz, kommentariya berishingiz) mumkin bo‘ladi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, talim ayniqsa yuridik talimini raqamli texnologiya bilan integratsiya qilish. Bosqichma-bosqich o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va eng asosiysi bilim ko‘nikmalarini oshirish lozim. Shuni xam aytish joiyzki, dars yarayonlarda kompyuter qurilmalaridan foydalanish o‘qituvchilarga qulaylik yaratibgina qolmay, o‘quvchilarni qiziqarli dars mashg‘uloti bilan ta‘minlayadi. Rivodjlangan talimida

raqamli texnolgiya bilan integratsiyalashuv yana bir ahamiyati bu o'quvchilarga erta talim dasturini taqdim etishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Elektron darslik <http://www.firststeps.ru> saxifasi. 2004y.
2. INTERNET VA AXBOROT HIMOIYASI/ <http://www.freenet.uz>. Mualliflar: Hasanov P./ Isayev R. va boshqalar. Toshkent-2000.
3. Aripov M.M. va boshqalar. Informatika, informatsion texnologiyalar, 2-qism.-Toshkent, TDTU, 2013, 430b.
4. Simonovich S.V. Yevseyev G.A. Alekseyev A.G. Spetsialnaya informatika: Uchebnoye posobiye.-M., 2012g.
5. Petrov M.N., Molochkov V.P. Kompyuternaya grafika. Uchebnik -SPb, Piter, 2013, 736s.

[www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)

[www.online.sud.uz](http://www.online.sud.uz)

[www.microsoft.com](http://www.microsoft.com)

[www.uz.infocom.uz](http://www.uz.infocom.uz)